



Fidoyilik –  
Vatanga xizmat demak!

2023-yil 30-mart, payshanba,  
38 (23.759)-son

KUN  
HIKMATI  
Ma'naviy komillik  
yozilmagan qonunlarga  
rioya etishda ko'proq  
ko'zga tashlanadi.  
Chunki unda ongli  
yondashuv talabi  
kuchliroq

1913-yil aprel oyidan chiqa boshlagan



[www.zarnews.uz](http://www.zarnews.uz) <https://www.facebook.com/zarnews.uz> [@zarnews\\_uz](https://twitter.com/zarnews_uz) [https://twitter.com/zarnews\\_uz](https://twitter.com/zarnews_uz)



# KONSTITUTSIYA – SENIKI, MENIKI, BIZNIKI!

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining FARMONI

## ISH HAQI, PENSIYALAR VA NAFAQALAR MIQDORINI OSHIRISH TO'G'RISIDA

Aholi turmush darajasini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar izchilligini ta'minlash hamda fuqarolarning daromadlarini oshirish borish maqsadida:

1. 2023-yil 1-apreldan boshlab pensiyalar va nafaqalar miqdori 7 foizga oshirilsin.

2. 2023-yil 1-apreldan boshlab O'zbekiston Respublikasi hududida:

pensiyaning hisoblashning bazaviy miqdori – oyiga 347 000 so'm;

yosha doir eng kam pensiya miqdori – oyiga 677 000 so'm;

nogironlik pensiyalari, jumladan, ish stajiga bo'lgan shaxslarga beriladigan nafaqa miqdori – oyiga 747 000 so'm;

mehnatga layoqatsiz fuqarolarga beriladigan nogironlik nafaqasi va bolalikdan nogironligi bo'lgan shaxslarga beriladigan nafaqa miqdori – oyiga 747 000 so'm;

1941–1945-yillardagi urush oqibatida nogiron bo'lgan shaxslar va uning qatnashchilarini, shuningdek, fastishlar konslagerlarning voyaga yetmagan sobiq mahbuslari va Leningrad shahri qamal qilingan davrda ishlagan shaxslarning eng kam pensiya miqdori ustamalarni inobatga oлgan holda – oyiga 3 296 000 so'm;

belgilangan yosha doir eng kam pensiya miqdoridan (677 000 so'mdan) 747 000 so'mgacha pensiya oluvchilarning yosha doir pensiyalari miqdori – oyiga 747 000 so'm;

zarur ish stajiga ega bo'lgan keksa yosha doir eng kam pensiya miqdori – oyiga 535 000 so'm;

ish stajiga bo'lgan chog'dagi yosha doir pensiyalari eng kam miqdori – oyiga 535 000 so'm;

o'zgalar parvarishiga muhtoj nogironligi bo'lgan 18 yoshgacha bolalarning parvarishi bilan band bo'lgan bolaning qonuniy vakiliga beriladigan nafaqa miqdori – oyiga 535 000 so'm;

boquvchisini yo'qtganlik nafaqasi oluvchilarning bir nafr mehnatga qobiliyatsiz oila a'zosi uchun nafaqa miqdori – oyiga 535 000 so'm etib belgilansin va keyingi har bir mehnatga qibiliyatsiz oila a'zosi uchun – 198 000 so'mdan qo'shilsin;

boquvchisini yo'qtganlik pensiyasi oluvchilarning bir nafr mehnatga qobiliyatsiz oila a'zosi uchun pensiyang eng kam miqdori – oyiga 535 000 so'm etib belgilansin va keyingi har bir mehnatga qibiliyatsiz oila a'zosi uchun amaldagi tartibga muvofigi pensiya to'lansin.

3. 2023-yil 1-maydan boshlab budjet

O'zbekiston Respublikasi  
Prezidenti

Toshkent shahri,  
2023-yil 28-mart

tashkilotlari xodimlarining ish haqi miqdori 7 foizga oshirilsin.

4. 2023-yil 1-maydan boshlab O'zbekiston Respublikasi hududida:

mehnatga haq to'lashning eng kam miqdori – oyiga 980 000 so'm;

bazaviy hisoblash miqdori – oyiga 330 000 so'm etib belgilansin.

5. Belgilansinki:

budget tashkilotlari xodimlarining ish haqlarini oshirish bilan bog'liq xarajatlar – O'zbekiston Respublikasining "2023-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to'g'risida"gi Qonuning muvofigi ish haqi, pensiyalar, stipendiyalar va nafaqalar miqdorini, shuningdek, ayrim xizmat turli bo'yicha tariflarni oshirish bilan bog'liq xarajatlar uchun ajratilgan budjet mablag'larini hisobidan;

pensiyaning nafaqalar miqdorlarini oshirish bilan bog'liq xarajatlar – Davlat budjeti hamda Iqtisadiyot va moliya vazirligi huzuridagi budjetdan tashqari Pensiya jam'armasi mablag'larini hisobidan oplandani.

6. Mazkur Farmon talablarini bajarish uchun talab etiladigan qo'shimcha mablag'lar O'zbekiston Respublikasining respublika budjeti xarajatlarini oshirish hisobiga moliyalashtirilishin.

Ish beruvchilarga ish haqi miqdorini qonunchilik hujjalarda belgilangan mehnatga haq to'lashning eng kam miqdoridan kam bo'lgan holda to'lashni ta'minlab, ish haqi miqdorini mehnatga haq to'lashning eng kam miqdorina muvofigi oshirish tavsisi etilsin.

7. Iqtisadiyot va moliya vazirligi:

O'zbekiston Milliy axborot agentligi, O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi, Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi bilan birligida ushbu Farmonning maqsadi, vazifalari va undan kutilayotgan natijalar ommaviy axborot vositalari, Internet va ijtimoiy tarmoqlarda keng yoritish ishlarni tashkil qilsin;

manfaatdor vazirligini va idoralar bilan birligida ikki oy muddatda qonunchilik hujjalarga ushbu Farmonidan kelib chiqadi-gan o'zgartirish va qo'shimchalar to'g'risida Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritsin.

8. Mazkur Farmonning ijrosini samarali tashkil qilishga mas'ul va shaxsiy javobgar etib iqtisadiyot va moliya vaziri Sh.D. Kudbiyev belgilansin.

Farmon ijrosini muhokama qilib borish, ijro uchun mas'ul tashkilotlar faoliyatini muvofiglashtirish va nazorat qilish Bosh vazir o'rinnbosari J.A. Qo'chkorov zimmasiga yuk-lansin.



## YOSHLAR O'ZGARISHLARGA BEFARQ EMAS

Jomboy tumanida "Konstitutsiya meniki, seniki, bizniki! Konstitutsiya o'zimizniki!" shiori ostida targ'ibot tadbir o'tkazildi.

Unda mamlakatimizda avtomobil ishlab chiqaruvchi korxonalar xodimlari, tadbirkorlar, harbiyalar, sportchilar va yoshlar vakillari ishtirot etdi. Tadbirda so'zga chiqqanlar keyingi yillarda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar va ularning samarasi haqida gapirib, ishtirotchilarni yangilanayotgan Konstitutsiya uchun o'tkaziladigan referendumga befard bo'lgan bo'limsizka chaqirdi.

- 2010-yilda o'z faoliyatini boshlaganman, - deydi urgutlik tadbirkor Xurshid To'rayev. – 2014-yilda Urgut tumanida sellofan ishlab chiqarishni yo'lg'a qo'yanimda korxona xodimlari 23 nafarni tashkil etardi. Bugungi kunda ularning soni 3 ming nafarga yetdi. Imkoniyatlardan foydalaniib, qurilish korxonasi faoliyatini yo'lg'a qo'ydim. Xorijiy investorlarni jalb qildik. Mamlakatimizning turli hududlarda yangi binolar quryapmiz. Yurtimiz ravaqa, tadbirkorlik rivoji, ischi xodimlar va farzandlarim taqdiriga befard bo'lgan holda 3 ming kishilik jamoamiz va oila a'zolaram bilan birga

30-aprel kuni o'tkaziladigan referendumda faol ishtirot etamiz.

Tadbirda sambo bo'yicha ikki karra jahon championi, sakkiz karra Osiyo championi, Toyloq olimpiya va paralimpika sport turlariga tayyorlash markazi sambo bo'limi katta treneri Shavkat Jo'rayev o'z shogirdlari bilan ishtirot etib, erishayotgan yutuqlari haqida so'zlab berdi.

- Mamlakatimizda sportga alohida e'tibor qaratilayipli, - deydi u. - Buning samarasini futbolchilarimiz, kurashchiyu bokschilarimiz, shaxmatchilarimiz va boshqa sportchilarimizning natijalarida ko'rishimiz mumkin. Men faoliyat yuritayotgan markazda ham championlar safi yildan-yilga kengayib bormoqda. Kelgusida ham ko'plab shogirdlar tayyorlab, championlar yetishib chiqishi uchun bor kuch-g'ayratimni ayamanman. Bu yo'lda yangilanayotgan Konstitutsiyamiz bizga yana-da keng imkoniyatlar yaratishiga ishonaman.

Poytaxtdan kelgan san'atkorlarning chiqishlari ishtirotchilarga o'zaga zavq bag'ishladi.

Shu kabi targ'ibot tadbiri "Ipak yo'li" turizm va madaniy me'ros xalqaro universitetida ham o'tkazildi.

Barno BOTIROVA,  
Baxtiyor MUSTANOV (surat).



## REFERENDUM O'TKAZUVCHI UCHASTKALAR TUZILDI

29-mart kuni 7-Samarqand okrug komissiyasining navbatdagi majlisiga o'tkazildi.

Komissiya raisi F.Toshev boshqargan yig'ilishda okrug hududida referendum uchastkalarni tuzish haqidagi masha'ala ko'rib chiqildi.

chi tumanida (43 ta) tuzildi. Referendum o'tkazuvchi uchastkalar haqidagi ma'lumotlar tuman va shahar gazetalarini va boshqa ommaviy axborot vositalarida e'lon qilinadi. Uchastkalar referendumda ishtirot etish huquqiga ega bo'lgan fuqarolarning, qoida tariqasida, kamida yigirma va ko'pi bilan chungu ming nafaridan iborat etib tashkil etilmoqda.

Referendum uchastkalarining 890 tasi umumiy o'ra ta'lim maktablarda, 58 tasi kollej, litsey va texnikumlarda, 41 tasi mahalla fuqarolar yig'inalarda, 28 tasi bishbaliy, sanatoriy va dam olish muassasalarida, 16 tasi oly o'quv yurtlari binolardida, 11 tasi harbiy qism va ozodlikdan mahrum etish muassasalarida faoliyat olib boradi.

Majlisdan so'ng okrug komissiyasi raisi ishtirotkida o'tkazilgan briefingda 7-Samarqand okrugi bo'yicha shu paytgacha amalga oshirilgan ishlar haqida ma'lumot berildi.

Okrug matbuot markazi.

## AMALDAGI KONSTITUTSIYADA

### 17-modda.

O'zbekiston Respublikasi xalqaro munosabatlarning to'la huquqli sub'yekti. Uning tashqi siyosati davlatlarning suveren tengligi, kuch ishlataslik yoki kuch bilan tahdid qilmaslik, chegaralarning daxlsizligi, nizolarni tinch yo'l bilan hal etish, boshqa davlatlarning ichki ishlariiga aralashmaslik qoidalariiga va xalqaro huquqning umume'tirof etilgan boshqa qoidalari va normalariga asoslanadi.

Respublika davlatning, xalqning oly manfaatlari, farovonligi va xavfsizligini ta'minlash maqsadida ittifoqlar tuzishi, hamdo'stliklarga va boshqa davlatlararo tuzilmalarga kirishi va ulardan ajralib chiqishi mumkin.



## KONSTITUTSIYAVIY QONUN LOYHASIDA

### 17-modda.

O'zbekiston Respublikasi xalqaro munosabatlarning to'la huquqli sub'yekti.

O'zbekistonning tashqi siyosati davlatlarning suveren tengligi, kuch ishlataslik yoki kuch bilan tahdid qilmaslik, chegaralarning buzilmasligi, davlatlarning hududiy yaxlitligi, nizolarni tinch yo'l bilan hal etish, boshqa davlatlarning ichki ishlariiga aralashmaslik prinsiplariga hamda xalqaro huquqning umume'tirof etilgan boshqa prinsip va normalariga asoslanadi.

### 18-modda.

O'zbekiston Respublikasi davlatlar va xalqaro tashkilotlar bilan ikki va ko'p tomonloma munosabatlarni har taraflama rivojlantirishga qaratilgan tinchliksevar tashqi siyosatni amalga oshiradi.

O'zbekiston Respublikasi davlatning, xalqning oly manfaatlariidan, uning farovonligi va xavfsizligidan kelib chiqqan holda ittifoqlar tuzishi, hamdo'stliklarga va boshqa davlatlararo tuzilmalarga kirishi hamda ulardan chiqishi mumkin.

Pedagog xodimlarning xizmat vazifalarini bajarishiga to'sqinlik qilganlik uchun javobgarlik kuchaytirilishi munosabati bilan President tomonidan 2023-yil 27-martda imzolangan qonun (O'RQ-826)ga asosan, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat hamda Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodekslariga qo'shimcha va o'zgartishlar kiritildi.

Jinoyat kodeksiga kiritilgan qo'shimchaga ko'r'a, mehnatga biron-bir shaklda ma'muriy tarzda majburlash ta'lism tashkiloti pedagog xodimiga nisbatan xuddi shunday qilmish uchun ma'muriy jazo qo'llanilganidan keyin sodir etilisa, quyidagi jazo choralaridan biri qo'llanilishiga sabab bo'ladi:

- bazaviy hisoblash miqdori (BHM)ning 150 baravaridan 200 baravarigacha (45 million so'mdan 60 million so'mgacha) miqdorda jarima;

## O'qituvchi va tibbiyot xodimlari faoliyatiga aralashmang! Aks holda...

- 3 yilgacha muayyan huquqdan mahrum qilish;

- 3 yilgacha axloq tuzatish ishlari.

Ilgari bunday norma mavjud emas edi. Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksga ko'r'a, mehnatga biron-bir shaklda ma'muriy tarzda majburlash BHMning 50 baravaridan 100 baravarigacha (15 million so'mdan 30 million so'mgacha) miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

Endilikda mazkur Kodeksga kiritilgan o'zgartish va qo'shimchaga ko'r'a, xuddi shunday huquqbazarlik ta'lism tashkiloti pedagog xodimiga nisbatan sodir etilsa, BHMning 100 baravaridan 150 baravarigacha (30 million so'mdan 45 million so'mgacha) miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

Shuningdek, pedagog xodimning kasbiy faoliyatiga ta'lism oluvchilarning bilimini to'g'ri va xolis baholashiga ta'sir ko'rsatish bilan ifodalangan tarzda qonunga xilof ravishda aralashish yoki uning xizmat vazifalarini bajarishiga to'sqinlik qilish:

- fuqarolarga BHMning 7 baravaridan 10 baravarigacha (ilgari 5 baravaridan 7 baravargacha), mansabdor shaxslarga esa 10 baravaridan 15 baravarigacha (ilgari 7 baravaridan 10 baravargacha) miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

Xuddi shunday huquqbazarliklar ma'muriy jazo chorasi qo'llanilganidan keyin 1 yil davomida takror sodir etisa:

- fuqarolarga BHMning 10 baravaridan 15 baravarigacha (ilgari 7 baravaridan 10 baravargacha),

mansabdor shaxslarga esa 15 baravaridan 20 baravarigacha (ilgari 10 baravaridan 15 baravarigacha) miqdorda jarima solishga yoki 15 sutkaga cha ma'muriy qamoqqa olishga (ilgari ushu jazo chorasi qo'llanilmagan) sabab bo'ladi.

\* \* \*

Prezident tomonidan 2023-yil 27-martda imzolangan qonun ((O'RQ-827)ga ko'r'a, Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeks yangi 197-7-modda bilan to'ldirilib, unda tibbiyot xodimining qonuniy tibbiy faoliyatiga to'sqinlik qilish yoki shu maqsadda tibbiyot xodimiga turli shaklda qonunga xilof ravishda ta'sir o'tkazish uchun ma'muriy javobgarlik belgilandi.

Mazkur qilmish uchun fuqarolarga BHMning 5 baravaridan 7 baravarigacha (1,5 million so'mdan 2,1 million so'mgacha), mansabdor shaxslarga esa BHMning 7 baravaridan 10 baravarigacha (2,1 million so'mdan 3 million so'mgacha) jarima yoki 15 sutkaga ma'muriy qamoq tarzidagi jazo belgilandi.



**HUQUQIY MASLAHAT**

**Mehnatga qobiliyatsizlik nafaqasi**  
hammaga  
100 foiz  
to'lanmaydi?

Farzandimni davolatish uchun bola parvarishi ta'tiliga chiqqan edim, menga qancha miqdorda mehnatga qobiliyatsizlik nafaqasi beriladi? Bolam kichkinligi uchun 100 foiz to'lanadimi?

**J.NASIBOV,**  
**Samarqand shahri.**

Vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik nafaqasi mehnatda mayib bo'lgan va kasb kasalligiga chalinganda ish haqining to'liq miqdorida, boshqa hollarda esa umumiy ish stajiga, qaramog'ida voyaga yetmagan bolalarining soni va boshqa holatlarga qarab, ish haqining oltmish foizidan yuz foiziga cha miqdorda to'lanadi.

Kodimlarga vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik bo'yicha nafaqa to'lash quyidagi miqdordorda bo'ladi:



- umumiy ish stagi 8 yil va undan ortiq bo'lgan xodimlarga hamda 21 yoshga yetmagan chin (sag'ir) yetimlarga ish haqining 80 foizi miqdorida;

- umumiy ish stagi 8 yilga chaba bo'lgan xodimlarga ish haqining 60 foizi miqdorida.

Quyidagi shaxslarga esa ish stajining davomiyligidan qat'i nazar, ish haqining 100 foizi miqdorida vaqtincha mehnatga qibiliyatsizlik nafaqasi to'lanadi:

- ishayotgan 1941-1945-yillardagi urush qatnashchilariga;

- baynalmil jangchilarga va ularga tenglashtirilgan boshqa shaxslarga;

- qaramog'ida 16 yoshga (o'quvchilar 18 yoshga) yetmagan uch yoki undan ortiq bolalari bo'lgan xodimlarga;

- Chernobil AESdagagi avaryia oqibatlarni tugatishda qatnashgan xodimlarga;

- Chernobil AESdagagi avaryia natijasida radioaktiv ifloslanish zonasidan evakuatsiya qilingan va ko'chirigan, qon hosil qiluvchi organlar kasalliklari (o'tkiz leykoz), qalqonsimon bez (adenoma, rak) va xavfli o'smalar bilan bog'liq kasalliklarga chalilgan xodimlarga;

- mehnatda mayiblanish va kasb kasalligi natijasida vaqtincha mehnatga qibiliyatsizlik nafaqasi bo'lgan xodimlarga.

**Mansur HASANOV,**  
**viloyat adliya boshqarmasi**  
**mutaxassis.**

## Talab va taklif o'rtasidagi muvofiqlik

yosh mutaxassislar imkoniyatidan foydalanishda samara beradi



mahorati, biliimi va intellektual salohiyati bilan bevosita bog'liq. Hozirgi kunda mutaxassislikka ega bo'lgan yoshlarni ishga joylashtirish bo'yicha jiddiy muammolarimiz mavjud. Ushbu masalalar kasbiy ma'lumotiga ega yosh mutaxassislarini ishga joylashning tizimi tarihi, samarali mexanizmi yo'qligidan kelib chiqmoqda.

Misol uchun, Davlat statistik qo'mitasi nashr etgan to'plamlarda jamiyatning u yoki bu kasbiy mutaxassislikka bo'lgan ehtiyojni bilishimiz mumkin bo'lgan yoki ta'lum muassasalarini, o'rta maxsus bilim yurtlari bitiruvchilarini soni, ishga joylashganlik holati to'g'risida ma'lumotlar yo'q.

Ma'lumotlarga ko'r'a, ish izlovchi sifatida mehnat birjalaridan ro'yxatdan o'tgan oly ma'lumoti yoshlar salmog'i umumi yishisizlar sonining qarib 6 foizini, o'rta maxsus ma'lumotlari esa 20 foizini tashkil etaptdi.

Bundan ko'rindiki, ishchi kuchidan talab va taklif o'rtasidagi muvofiqasiga foydalaniш, yoshlarning tadbirkorlik tashabbuslari qo'llab-quvvatlash, biznes ko'nikmalarini shakkantirish maqsadga muvofiq.

**Alim SHAVAZI,**  
**O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi bo'lim boshlig'i.**



### Hudud obodligiga befarq emasmiз

Prezidentning Samarcand shahridagi Xalq qabulxonasi aholi murojaatlari bo'yicha tizimi ishslash bilan birga mahallalar infratuzilmasini yaxshilash, aholi uchun munosib turmush sharoiti yaratishga e'tibor qaratmoqda.

Jumladan, qabulxonamiz tashabbusi bilan Bog'ishifo mahallasi binosi ta'mirlanib, xodimlar uchun qulay imkoniyatlar yaratildi. Ibn Sino, Moskva, JararIQ, Farhod, Beklar, Gulxaniy va Firdavsiy ko'chalarida kuzatuv kameralari o'rnatildi. Mahalla hududidagi Gulxaniy ko'chasingin 60 metr masofasiga asfalt yotqizildi, mahallaning 8 ta ko'chasi obodonlashtirish ishlari olib borildi. Shuningdek, 4-oilaviy poliklinika tomonidan aholi to'liq tibby ko'rindan o'tkazilib, 20 nafr kam ta'minlangan, nogronligi bo'r fugarroga bepul dori-darmon targatildi.

Bundan tashqari, "Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasida Fidoyilar mahallasidagi kollektor hududida bo'sh maydonda, Navro'z mahallasidagi Madaniyat uyi atrofida, Shohizinda tepaligidagi ming tupidan ortiq turli xil manzaralari daraxt ko'chatlari elkildi.

**Hamza TURDIYEV,**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Samarcand shahridagi Xalq qabulxonasi yetakchi mutaxassis.

### Korxonaning tashkiliy-huquqiy shaklini o'zgartirish muddati tasdiqlanadi

Prezidentning 2022-yil 8-noyabrda "Korporativ munosabatlarning huquqiy asoslarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori bilan Adliya vazirligi tegishli vazirlik va idoralar bilan birlashtirilgan 2023-yil 1-martga qadar analuda faoliyat yuritib keloyotgan unitar korxonasi qo'shimcha mas'uliyatlari jamiyat tashkiliy-huquqiy shaklidagi yuridik shaxslarning tashkiliy-huquqiy shaklini o'zgartirish jarayonlarini 2025-yil 1-yunvara qadar yakunlashni nazarda tutuvchi tashkiliy chora-tadbirlari rejasini tasdiqlaydi.

Xo'jalik jamiyatlarining ishtirokchisi (aksiyadori) va kreditorlari huquqlarini himoya qilish uchun 2023-yil 1-apreldan mas'uliyati cheklangan jamiyat ustav fondiga (ustav kapitaliga) qo'shiladi-gan, qiyomiati bazaviy hisoblash miqdorining o'n ming barobaridan ko'p bo'lgan pulsiz hissalar bahol-

ovchi tashkilot tomonidan baholanadi va baholangan qiymatdan yuqori bo'lishi mumkin emas.

Tadbirkor uchun yana bir yengillik Davlatimiz rahbarining 2022-yil 9-noyabrda "Tadbirkorlik faoliyatini davlat tomonidan tartibga solishni soddallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" farmoni bilan 2023-yil 1-yanvardan tadbirkorlik sub'ektining ustav fondini (ustav kapitalini) kamaytiresh to'g'risida qaror qabul qilinganda kreditorlarini yozma ravishda xabardor qilish va ommaviy axborot vositalarida bu haqida e'lon berish;

- yakka tartibdagi tadbirkor tomonidan yollangan xodimlarni Yagona milliy mehnat tizimida hisobga olish orqali davlat soliq xizmati organlarida alohida hisobga qo'yish bekor qilindi.

**Azizbek RAHIMOV,**  
**Samarqand shahar davlat xizmatlari markazi yetakchi mutaxassis.**

## Sifatli ta'limg olishning huquqiy asoslari mustahkamlamoqda

Shu bois yangilanotgan Konstitutsiyamizda ta'limg va ilm-fanga oid normalar qarib ikki barobar oshmoqda. Jumladan, fuqarolarning oly ta'limg muassasalarida davlat granti hisobidan o'qish imkoniyati ta'limgardan lozim.

Asosiy qonunda fuqarolarning bepul boshlang'ich kasb-hunarga o'qitilishi ham belgilammoqda. Nogironligi bor bolalarga o'z tengdoshlar bilan bir xil ta'limg olishi uchun barcha sharoit yaratish ko'zda tutilyapti. Shuning uchun bunday imkoniyatlar inklyuziv ta'limg sifatida Konstitutsiya ga kiritilmoqda. Bu shunday nuqsonlarga ega bolalarning yakkalanish qolmasligi, jamiyatning to'laqoni a'zosi sifatida shaklanishi va kamol topishi uchun muhim kafolatdir.

Konstitutsiyada davlatning o'qituvchilar sha'ni va qadr-qimmatini himoya qilish, ularning ijtimoiy va moddiy farovonligi, kasbiy jihatdan o'shi to'g'risida g'amxo'rlik qilish majburiyati kuchaytirilmoqda.

Konstitutsiyamizda oly ta'limg muassasalariga akademik erkinlik, o'zini o'zi boshqarish, tadqiqotlar o'tkazish va o'qitish erkinligi huquqi kaflatlamoqda. Ushbu norma-

nin kiritilishi oly o'quv yurti va ilm-yadqiqot muassasalarining ta'limg tadbirlari bo'yicha tashkiloti shaklida qurilishi amalga oshirilishi. Tashkilot qurilishi amalga oshirilishi amalga oshirilishi.

Bu boroda Toshkent davlat agrar universiteti Samarqand filialida qator yoshlar amalga o'qituvchilar tajribasidan samariy foydalishan lozim.

Asosiy qonunda fuqarolarning bepul boshlang'ich kasb-hunarga o'qitilishi ham belgilammoqda. Nogironligi bor bolalarga o'z tengdoshlar bilan bir xil ta'limg olishi uchun barcha sharoit yaratish ko'zda tutilyapti. Shuning uchun bunday imkoniyatlar inklyuziv ta'limg sifatida Konstitutsiya ga kiritilmoqda. Bu shunday nuqsonlarga ega bolalarning yakkalanish qolmasligi, jamiyatning to'laqoni a'zosi sifatida shaklanishi va kamol topishi uchun muhim kafolatdir.

Konstitutsiyada davlatning o'qituvchilar sha'ni va qadr-qimmatini himoya qilish, ularning ijtimoiy va moddiy farovonligi, kasbiy jihatdan o'shi to'g'risida g'amxo'rlik qilish majburiyati kuchaytirilmoqda.

Konstitutsiyamizda oly ta'limg muassasalariga akademik erkinlik, o'zini o'zi boshqarish, tadqiqotlar o'tkazish va o'qitish erkinligi huquqi kaflatlamoqda. Ushbu norma-

Filial professor-o'qituvchilar Germaniya, Finlandiya, Latvija, Liva, Venegriya, Rossiya, Yaponiya, Koreya, Hindiston kabi davlatlarning ta'limg va tadqiqot muassasalarida malaka oshirib, tajriba almashib qaytishdi.

Yurtimizda ta'limga qaratayotgan u'lak hamda yaratilayotgan huquqiy poydevor kun kelib albatta, o'z meviasini berishiga ishonomiz. Biz referendumga befarq emasiz.

**Shavkat HASANOV,**  
**Toshkent davlat agrar universiteti Samarqand filiali direktori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor.**

## "Lasetti"ning pulini qo'shnilariga targatgan dehqon

Yoxud bir dona kartoshka bir kilogramm tosh bosidi

Donasi bir kilogramm tosh bosadi-gan kartoshka yetishtiradigan nuro-bodlik dehqon haqida eshitganmis? U tumanning Xalqobod mahallasida yashovchi To'raqul Berdimurodovdir.

- Bir tupidan 8 kilogramgacha hosil olaman, - deydi u. - O'tgan yili yetishtirgan kartoshkalaramning eng kattasi bir kilogramdan ziyod bo'ldi. 2004-yildan beri shu ish bilan shug'ullanaman. Avvaliga to'morqanidagi 12 totsilik maydonda kartoshka yetishtirib ko'rдик. Birinchli yili 8 tonna hosil oldik. O'sha paytda bozorda bir kilogramm kartoshkaning narxi 300 so'm edi. Yelkamga orqalab, bozorga olib chiqqan bir qopp kartoshka puli bor-yo'g'i 15 ming so'm bo'ldi. Shuning uchun omborga joylab qo'yan kartoshkaning barini qo'ni-qo'shnilariga 250 so'mdan qarzga targatdi. Ko'lmangal keilib, uning narxi 2600 so'mga ko'tarilib ketdi. Turmush



im. 30 tonna hosil olamiz, deb o'ylagandim. Ammalotaxon haq ekan, 50 tonnaga yaqin hosil olib, 120 million so'm dan daromad qildik. Bankdan ollan kreditin butunlay qaytarildi. Shu yil 3 hektar maydonga kartoshka ekish niyatidamiz

# O'zbekiston ilk bor o'z aholisini ro'yxatdan o'tkazmoqda. NEGA?

Taxminga tayanish doim ham muvaffaqiyat keltiravermaydi. Aniq statistika, o'rganilan va tahlil qilingan ma'lumot har bir sohada muvaffaqiyatga erishishning asosiy omili hisoblanadi. Busiz rivojlanish haqida gapirish mantiqisiz ko'rindi. Ayniqsa, hozirgi global o'zgarishlar zamondan.

Bugungi ma'lumotlarni doimgi iqtisodiy o'sish, korxonalar sonining ortishi, ish o'rinalarining yaratilishidan farq qiladi. Aniqrog'i, mustaqil O'zbekistonda hali kuzatilmagan hodisa, ya'nii aholini ro'yxatga olish haqida.

Xo'sh, bu amaliyat nima uchun kerak? Nega keyingi yillarda bu haqda ko'p gapirilyapti? Bizda shu paytgacha aholi ro'yxatga olinmaganmi? Hozir respublikamiz aholisini qanday hisoblaganmiz?

## TAXMINLARGA TAYANIB REJA TUZMANG

Oddiy olib qaraydigan bo'lsak, har bir uydya oila a'zolarining sonidan kelib chiqib, mahsulot xarid qilinadi va shunga mos ravishda taom tayyorlandi. Boshqa xardidlarda ham uydagilarning istaklari inobatga olasiz. O'qish, ish, dam olish, musiqa tinglash, kitob o'qishda ham xona donadiganlarning oqiziqishi, qobiliyati, salohiyati, imkoniyatini hisobga olasiz! Xo'sh, oilada turli xil fe'l-ator bo'lsa, qanday qilib hammaning ko'nglini birdek olishni eplaysiz?

Aholini ro'yxatga olish bilan bog'liq chora-tadbirlar zaruratinu ana shunga qiyoslash mumkin. Masalan, Qo'shrabotda qishda xonadorlar issiq bo'lishi uchun ularga qancha ko'mir, qancha gaz kerak? Paxtachida-chi? Nurobodda qancha odam ishsiz? Urgutda yana nechta ta'lin muassassasi qurish kerak? Kattaqo'rg'onda nechta oila uy-joyga muholt? Samarqand shahrida, aslida, qancha kishi isitiqomat qiladi? Viloyatda qancha yoshi ish bilan ta'minlandi, ularning qanchasi tadbirkorlik bilan shug'ullanayti yoki qiziqadi?...

Aholini ro'yxatga olish, ya'nii birgina shu amaliyat bilan nechta savollarga javob, qanchadan-qancha muammolarga yechim topish mumkin! Reja va dasturlarning manzilligi, islohotlarning samadarorigi bu boradagi ma'lumotlarning aniq va ishonchliigiga bog'liq.

## HISOBINI TOPGAN ADASHMAYDI

Aholini hisobga olish amaliyoti ilk bor miloddan avvalgi III ming yillikdan boshlangan. Bu jarayon dastlab Osiyo va Afrika davlatlari, Misr, Mesopotamiya, Hindiston, Xitoy va Yaponiyani qamrab olygan. Bu islohotdan ko'zlangan maqsad soliq to'lovchilar va askarlikka yaroqli aholini aniqlash bo'lgan. Ilk o'ta asrlarda mazkur tarbit bir muncha takomillashtash. Aholini hisobga olish elementlari xo'jaliklarning yozma kitoblar, kadastralardi tavsivari bilan uyg'unlashgan. Ularda odamlar yoki oilalar emas, balki uyoy kabi soliqqa tortish birlilklari birechini o'rning qo'yilgan.

Finlandiyada XVI asrdan aholi soni ro'yxatini olib borish boshlangan. Davlatning maqsadi binchchi o'rinda soliqqa tortish va harbiy xizmatiga chaqirish bilan bog'liq bo'lgan.

XVIII asr o'talaridan aholini o'rganishga qiziqish ortadi. Avstriya, Niderlandiya, Danyia, Ispaniya, Yaponiya, AQSHda odamlar hisobini yuritishga kirishladi. Biroq bu hisob-kitoblar butun boshli aholini qamrab ololmagan.

Nufuzli universal ro'yxatga olish 1665-yilda Yangi Fransiya (Kvebek) koloniyasida bo'lib o'tadi. AQSHda 1790-yilda to'liq aholini ro'yxatga olish ishlari olib borildi. O'ttz yil o'tgach, Italya, Ispaniya, Angliya, Irlandiya, Avstriya, Fransiyada ro'yxatga olish taddbirlari o'tkaziladi. 1851-yilda Xitoya, keyin Yaponiyada (1871) va niyoyat, Rossiyada aholi ro'yxatga olingan.

Zamonaviy bosqich XX asrning o'talaridan boshlangan. Osyoning qator mamlakatlari, shuningdek, Afrikada aholini ro'yxatga olish o'tkazilgan. Bu yangi mustaqil davlatlar paydo bo'lishi bilan bog'liq. O'tgan asrning 70-yillarda Yaman, BAA, Saudiya Arabistonagi kabi mamlakatlarda birechini marotaba aholi ro'yxatdan o'tkazildi. XX asrning oxiriga kelib, aholini ro'yxatga olish dunyoning deyarli barcha hududini qamrab oldi.



## BIZDA SHU PAYTGACHA AHOLO RO'YXATGA OLINMAGANMI?

Dunyodagi har bir mamlakat o'zining aholisi va uning yashash holati bo'yicha ishonchli ma'lumotga ega bo'lish uchun munta-zam aholini ro'yxatga oladi.

Hozir jahonnинг ko'plab rivojlangan davlatlarda aholi o'ttacha har o'n yilda bir marta ro'yxatdan o'tkazilmoqda. Bida-chi?

O'zbekiston hududida ilk bor aholini ro'yxatga olish tadbiri 1897-yilda amalga oshirilgan. Shundan so'ng 1926, 1939, 1959, 1970, 1980-yillarda aholi ro'yxatga olingan. Ushbu tadbir so'nggi bor 1989-yilda o'tkazilib, o'sha paytda respublikamiz aholisi 19,7 million kishini tashkil etgan.

2023-yilning 1-yanvar holatiga ko'ra, respublikamiz doimiy aholisi soni 36024,9 ming kishi bo'lib, shundan shahar aholisi soni 18337, 7 ming kishini (jami aholi soniga nisbatan 50,9 foiz), qishloq aholisi soni 17689,2 ming kishini (49,1 foiz) tashkil etadi. Jami ahollimizning 50,3 foizi erkaklar (18 128,6 ming kishi), 49,7 foizi ayollar (17 896,3 ming kishi)dir.

2022-yilda respublika bo'yicha tug'ilgan bolalar soni 932,2 ming nafr, vafot etganlar 172,1 ming kishi ekanligi qayd qilin-gan. Respublika hududlari kesimida, 2023-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, eng ko'p aholi viloyatimizda 4118,4 ming kishini (respublika jami aholisi sonidagi ulushi 11,4 foiz), Farg'onada 3976,5 ming kishini (11 foiz) va Qashqdaryoda 3482,6 ming kishini (9,7 foiz) tashkil etadi.

Aholining joriy hisobi bo'yicha mayjud ma'lumotlar aholi soni, yashash sharoiti, ma'lumoti, bandligi, yoshi, jinsi, millat tarkibi, respublika hududida aholining joylashuvni va boshqa ijtimoiy-de-mografik o'ziga xosliklar to'g'risida aniq xulosva tahillar qilishga yetarlicha imkoniyat bermayapti. Mamlakatimizda 1899-yildan keyin hali biror marotaba ham aholini ro'yxatga olish ishlari o'tkaziladi. Shu tuyfali demografik muammolaringiz ko'payib ketdi. Odamlarning haqiqiy hayot tarzini o'rganish va ularga amaliy yordam ko'rsatishda qiyinchiliklar vujudga keldi. Nihoyat, Birlashgan Millatlar Tashkiloti 2015-yilning 10-iyunduda "2020-yilda aholi va uy-joy fondini ro'yxatga olish borasidagi prinsiplar va tavsiyalar" rezolyutsiyasini qabul qildi. Unda BMTga a'zo davlatlar uchun

\*\*\*

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Narzullayeva Lola Shukrullahoyevna notarial idorasida marhum Raximova Ozoda Karimovnaga (2021-yil 17-yanvarda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Narzullayeva Lola Shukrullahoyevna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil:** Samarqand shahri Nodirabegim ko'chasi, 5/1-uy.

\*\*\*

Toyoq tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Hasanov Aloividdin G'iyosiddin o'g'li notarial idorasida marhum Sherov Ma'mur Haydarovichga (2021-yil 28-avgustda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Hasanov Aloividdin G'iyosiddin o'g'li notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil:** Toyoq tumanı Toyloq shaharchasi, Istiqlol ko'chasi, 73-uy.

\*\*\*

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Aminov Mashhurjon Yusufovich notarial idorasida marhum Ganiyev Davronga (2017-yil 20-iyunda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Aminov Mashhurjon Yusufovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil:** Samarqand shahri Sug'diyona mas-kani, 14/12-uy.

\*\*\*

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Isoqulova Nitiga Turdiqulova notarial idorasida marhum Garipova Iraida Sulaymanovnaga (2022-yil 3-sentabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Isoqulova Nitiga Turdiqulova notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil:** Samarqand shahri Abu Rayhon Be-runiy ko'chasi, 12-uy.

\*\*\*

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Narzullayeva Lola Shukrullahoyevna notarial idorasida marhum Mixlibayev Ikkam Tatlibayevichga (2020-yil 26-sentabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Shomurodov Amar Salimovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil:** Samarqand tumanı O'rtsiqi ma-hallasi.

\*\*\*

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Ortiboyev Aziz Azamatovich notarial idorasida marhum Mixlibayev Ikkam Tatlibayevichga (2020-yil 26-sentabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Ortiboyev Aziz Azamatovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil:** Payariq tumanı Chelak shaharchasi, Istiqlol ko'chasi, 73-uy.

\*\*\*

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Narzullayeva Lola Shukrullahoyevna notarial idorasida marhum Ganiyev Davronga (2021-yil 17-yanvarda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Narzullayeva Lola Shukrullahoyevna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil:** Samarqand shahri Nodirabegim ko'chasi, 5/1-uy.

\*\*\*

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Nishonova Umida Ismatilla-yevna notarial idorasida marhum Xushvaqov Baxodir Jaxonovichga (2015-yil 11-iyulda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Nishonova Umida Ismatilla-yevna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil:** Samarqand shahri Rudakiy ko'chasi, 132-uy, 2-xona.

\*\*\*

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Nishonova Umida Ismatilla-yevna notarial idorasida marhum Xushvaqov Baxodir Jaxonovichga (2015-yil 11-iyulda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Nishonova Umida Ismatilla-yevna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil:** Samarqand shahri Rudakiy ko'chasi, 132-uy, 2-xona.

o'n yilda bir marta aholi va uy-joy fondini ro'yxatga olishi tavisya etilgan. Xususan, O'zbekistonda ham! Prezidentimizning 2019-yil 5-fevraldag'i "O'zbekiston Respublikasida aholini ro'yxatga olishni o'tkazish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi farmoni bu bora-da huquqiy asos bo'lib xizmat qiladi.

Respublikamizda aholini sinov tariqasida ro'yxatga olish tadbiri 2021-yilning 1-25-novabr kunlarda Andijon viloyatining Xo'jaobod tumani, Toshkent viloyatining Yugori Chirchiq tumani, Xorazm viloyatining Xiva shahri hamda Toshkent shahrining Yashnobod tumanlarida bo'lib o'tdi.

## XO'SH, AHOLO NI RO'YXATGA OLISH BIZGA NIMA BERADI?

Avvalo, aholining aniq soni, yoshi, jinsi, fuqaroligi, milliy tarkibi (barcha aholi punktlari bo'yicha), olibavli ahvoli, ma'lumoti, kasbi, uy-joy bilan ta'minlanganlik darajasi, mehnat resurslari, bandligi va ishsizligi, daromad manbalari kabilar bo'yicha batafsiz ma'lumot to'planadi. Bu ma'lumotlar orqali aholi jon boshiga to'g'ri keladigan makroiqitsodiy ko'rsatkichlar aniqlanadi. O'z navbatida, yurdoshlarimiz migratsiyasi to'g'risida to'liq ma'lumotlar shaklantiriladi.

Bundan tashqari, respublika va hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanirish, yangi ish o'rinnari yaratish, ayollar hamda bolalar salomatligini yaxshilash va ojalarga yordam ko'rsatish bo'yicha dasturlarni manzilli ishlab chiqish imkoniyati kengayadi.

## RO'YXATGA OLISH JARAYONI QANDAY BO'LADI?

Mazkr jarayon uch bosqichini qamrab oladi.

Birinchi - tayyorgarlik bosqichi.

Tayyorgarlik jarayonidagi eng muhim masala, ro'yxatga olishni keng ommaga yetka zish maqsadida aholi o'ttasida targ'ibot ishlarni olib borish, reklama ro'oli, logotip va shiorlar ishlab chiqish bilan bog'liq. Shu bilan birgalikda, tadbirka tashkil etish va o'tkazish tartibi, natijalarini tahlil qilish metodologiyasini ishlab chiqish hamda boshqa shu kabi tayyorgarlik ishlari amalga oshiriladi.

Ikkinchi - asosiy bosqichda bevosita aholini ro'yxatga olish amalga oshiriladi, ya'nii aholi to'g'risidagi ma'lumotlar yig'iladi, nazorat tekshiruvi o'tkaziladi va ro'yxatga olish materiallari top-shiriladi.

Uchinchi bosqichda esa olingan ma'lumotlar kodlashtirish yordamida tahlil etilib, natijalar rasman e'lon qilinadi.

Mamlakatimizda o'tkaziladigan aholini ro'yxatga olish tadbiri an'anaviy usulda, ya'nii ro'yxatga oluvchi shaxsler tomonidan hududlarda uyma-uy yurgan holda, yuzma-yuz suhabat asosida, ro'yxatga olish varaqalarini to'ldirish orqali amalga oshiriladi.

Shuningdek, internet tarmog'ida aholini ro'yxatga olish imkoniyati ham yaratiladi. Aniqrog'i, xohlovchilarning o'zlarini urayordan yoki masofadan turib, maxsus dastur orqali savolnomalar varaqalarini to'ldirgan holda ro'yxatdan o'tishlari mumkin bo'ladi.

## AMALIY ISHLAR QACHON BOSHLANADI?

Amaliy ishlarga allaqachon kirishgan. Xususan, Prezidentimiz farmoni asosida Aholini ro'yxatga olish tadbirini o'tkazish konsepsiysi tasdiqlangan. Mazkr konsepsiya asosida 2020-yilda O'zbekiston Respublikasining "Aholini ro'yxatga olish to'g'risida"gi Qonuni qabul qilindi.

Qonunda aholini ro'yxatga olish jarayonida to'plangan shaxsga doir ma'lumotlar maxfiy hisoblanishi, ular respondentning roziligi-siz oshkor etilmasligi va tarqatilmasligi qat'iy belgilab qo'yilgan.

Hozir O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzurid



# TIL O'RGANISH UCHUN NIMA KERAK?

*"Menda til o'rganishga iqtidor yo'q",  
"Tilni bolalikda tezroq o'rganish mumkin edi",  
"Men shundoq ham juda bandman",  
"Endi til o'rganishga qarilik qilaman"...*

Xorijiy tillarni o'rghanmaslik uchun ko'p bahonalarini ishlatalamiz. Qiziq tomoni, bu bahonalarni fakt sifatida qabul qilib, o'z ustida ishlashga urinib ko'rmayotganlar ham bor oranzida. Xo'sh, aslida ham shundaymi? Til o'rganish uchun bizga nima kerak: pulni yoki ishtiyoyq? Xorijiy tillarni tez o'zlashtirishning siri nimada? Quyida shu kabi savollarga javob topishga harakat qildik.

## TIL O'RGANISH UCHUN TUG'MA QOBILIYAT KERAKMI?

Avalo, bu yerda gap poliglotlik yoki biron xorijiy til bo'yicha ilmiy ish qilish haqida emas, insonning o'ziga ma'sul yoki zarurat yuzasidan biron xorijiy tilni o'rghanishga unda muloqot qila olishi yoki olmasligi haqidagi ketaypti. Shunday ekan, qobiliyatni vaj qilishdan oldin har birimiz hayotimizda bitta bo'lsa ham tilni o'rganganimizni e'tiborga olish lozim. Hayron bo'limgan, hozir gapirib turgan ona tilimizni ham bolalikda o'zlashtirganimiz. Unda o'z fikrini aniq ifodalay olish darajasiga yetish uchun bolaga necha yil kerak bo'lishini o'ylab ko'ring-a. Shu birgina fakt bilan "Bolalikda tilni osonor o'rganish mumkin", degan tushunchaning haqiqatga unchalik to'g'ri kelmasligini englab yetish mumkin.

Mulohaza qiladigan bo'lsak, albatta, bolalar ning zehni o'tkiz bo'fadi, shuning hisobiga ular yangi so'zlarini tez yod oladi. Lekin ularda maqsad va qunt bo'lmaydi. Siz esa aqli raso insonsiz, demak, mantiqan fikrlash qobiliyatingiz yuqori, qolaversa, xorijiy tilni nima uchun o'rganmoqchi ekanligingizni bilasiz. Shundan xulosaki, hayotiy tajriba va ko'nkmalar bu jarayoni osonlashtiradi.

## MAQSAD ANIQ BO'LSA, NATIJA KUTTIRMAYDI

Mutaxassislarning ta'kidlashicha, xorijiy tilni aniq maqsadsiz, ya'ni shunchaki, "zarar qilmaydi" qabilida o'rganish juda mushkul. Ishni shunday ruhda boshlaganlarning asosiy qismi ta'limning birinchi oyidayoq "taslim" bo'ladi yoki o'zini yuqoridaq kabi bahonalar bilan alday boshlaydi.

Tili o'rganish uchun insonda ishtiyoyq bo'lishi va bu ishtiyoyq aniq bir maqsaddan kuch olishi kerak. Aytaylik, o'qishga kirish, magistraturada o'qish, xorijiy davlatda yuqori maoshga ishlash...

Albatta, maqsadning ko'lami ishtiyoyq darajasini ham belgilaydi. Masalan, buyuk shifokor bo'laman, davosi yo'q dardlarga shifo topaman, degan maqsad bilan o'qig'an talaba, hech bo'limganda, o'z yo'naliши bo'yicha yetuk mutaxassis bo'lib yetishadi. Shunchaki, odamlarni davolab kun ko'raman, deb maqsad qilgan talaba esa yaxshi natijahiga erishmaydi. Bundaylar uchun o'z ustida ishlash ham azobdeklar tuyuladi. Ayni misol "Nima uchun ayrimlar to'rt yil xorijiy tillarga ixtisoslashgan olyi ta'l'im muassasasida o'qib ham chet tilida erkin gapira olmaydi, ba'zilar esa maktabdayoq bir nechta xorijiy tilni o'zlashtiradi?", degan savolga javob bo'la oladi.

## TILNI TEZ O'ZLASHTIRISH UCHUN...

Mavzuni o'rganish davomida juda ko'p manbaalarga murojaat qildik. Xorijiy tillarni tez va oson o'rganish bo'yicha ishlab chiqilgan turli usullarni o'rgandik. Qaysidir ma'noda ularning barchasi samarali hisoblanadi. Biroq yakuniy xulosani biz emas, ayni usullarni o'zida sinab ko'rgan va ma'lum natijaga erishganlar berishi kerak, degan xulosaga keldik.

Diyora TO'YCHIYEVA,  
Kattaqo'r'g'on tumanidagi  
40-umumta'lum mabtabining  
7-sinf o'quvchisi,

IELTS imtihonidan 7 ball olgan:

— Ingliz tiliga qiziqishim xorijiy tildagi multfilmnoma tomosha qilishdan boshlangan. Ularni tushunishi, multfilm qahramonlari gapirayotgan tilda gapireshni juda istardim. Keyinchalik bu qiziqish menda xorijiy olyighoda o'qish ishtiyoqini uyg'otdi. Shu tariqa 3-sinfigidan



**MUASSIS:** Samarcand viloyati hokimligi

**Bosh muharrir:** Farmon TOSHEV

Gazeta O'zbekiston matbuot va axborot agentligining Samarcand viloyat boshqarmasida 2023-yil 30-martda 09-01 raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr 100. Indeks 438. 17 644 nusxada chop etildi. Buyurtma 165. Hajmi 2 bosma taboq, bichimi A-2

**Gazeta haftaning seshhanba, payshanba va shanba kunlari chiqadi.**

**QABULXONA:** (66) 233-91-51, **REKLAMA VA E'LONLAR:** (66) 233-91-56

**BO'LIMLAR:** (66) 233-91-57, 233-91-58, 233-91-59, 233-91-61

**MANZILIMIZ:** 140100, Samarcand shahri, Ulug' Tursunov ko'chasi, 80-uy, Matbuot uyi.

Xalq orasida ibratlari naql darajasiga yetgan bu gap zamirida mehnat, ijod, mashaqqat va katta tajriba yotibdi. Darhaqiqat, jurnalist kasbi o'ta mas'uliyatli va sharafli kasb. Ushbu kasb sohibi bilimli, davr bilan hamqadam, odamlarning dardi, tashvishi, quvonch va muammolarini, jamiyatdagi jarayonlarni keng jamoatchilikka yetkazib bera oladigan salohiyatga ega bo'lishi kerak.

## JURNALISTIKANING NONI QATTIQ, AMMO ZAVQI O'ZGACHA



Viloyat Matbuot uyiida O'zbekiston Jurnalistlar uyushmasi viloyat bo'limi hamda "Zarafshon" va

"Самаркандский вестник" gazetalar tahririyati hamkorligida tashkil etilgan "Jurnalist" kasbidan qadr topganlar" mavzusida o'tkazilgan davra suhabatida uch nafran ana shunday salohiyatli, faxriy jurnalistlar, matbuot xodimlarining ibratlari faoliyati e'tirof etildi.

Bu yil o'zining qutlug' 85 yoshini qarshilagan Nasiba Tursunova "Zarafshon" gazetasida 30 yil davomida harf teruvchi bo'lib ishlashgan, 75 yoshli O'rınboy Normatov umrining yarmidan ko'prog'ini matbuotga bag'ishlagan, 70 yoshli Matlab Hasanov

talabalikdan "Urgut sadosi" gazetasida ishlab, oddiy muxbirlikdan mas'ul kotibgacha bo'lgan yo'lni bosib o'tgan. Tadbirda ularning ijoddagi faoliyati, ish jarayonidagi qiziqarli voqealar esga olindi.

- Hayotimning 30 yili "Zarafshon" gazetasida harf teruvchi sihatida o'tgan, - deydi Nasiba Tursunova. - Albatta, ishdagi qiyinchiliklilar, eski mashinkalarida harf terishing mashaqqati bo'lgan. Lekin mening zavqligi onlarni ham o'sha davrda o'tgan. Qiziqarli suhabatlar, voqealar hamon ko'z o'ngimda gavdalananadi.

- Ijodkor ko'ngil kishisi bo'ladi, - deydi Matlab Hasanov. - Bugungi e'tibor, mehnatlarimiz e'tirofi ko'nglimizni tog'day ko'tardi. Buning uchun tashkilotchilarga minnatdorlik bildiraman. Qolaversa, tadbir bahona anchadan buyon diydorlashmagan hamkasblarim, shogirdlar bilan ko'rishdim. Bu albatta, menga yana kuch beradi.

Faxriy jurnalistlarga uyushma va tahririyat sovg'alari topshirildi.

Husan ELTOYEV.



Inson tanasida 5-9 litrgacha qon bo'ladi va u 28 kunda iste'mol qilayotgan ovqatlarimiz hisobidan 100 foiz yangilanadi.

Shuning uchun Ramazon oyida tabiiy oziq-ovqat mahsulotlaridan iste'mol qilinsa, halol yeguliklardan vujudimizda toza qon hosil bo'ladi.

Dunyoviy hamda diniy olimlarning xulosaligiga ko'ra, inson a'zolari 120 yil yashashga, miya esa 200 yil ishlashga yaroqli ekan. Tanamizdagi qolgan a'zolarga nisbatan miya besh barobar ko'p qon "iste'mol" qildi. Mashinaga sifatsiz yoqilg'i solinsa, yomon ishlashi, toza benzin solinsa, yaxshi ishlashini idrok qilgan holda inson miyasi ham muhammal ishlash, halol-haromni, gunoh-savobni farqlaydi. Demak miyaga halol, ya'ni tabiiy oziqalardan hosil bo'lgan toza qon kerak.

Rustam SUYAROV,  
mehnat faxriysi,  
Kattaqo'r'g'on shahri.

## Ko'p duo olgan ko'p umr ko'rар



"Oltin olma, duo ol", degan maqol bejiz aytilmagan. Duo, hatto taqdirmi o'zgartirishga qodir, bu haqda hadisidarga ham bayon qilingan. Shu sababli avvaligalar keksalar duosini olishga harakat qilishgan. Hayot mabtabida toblangan, oqni qora- dan ajratuvchi nuroniylar, ya'ni yoshi ulug' insonlar duosini olishgan.

Bizga ota-onamiz "O'zingdan kattaga gap qaytarma", deb o'rgatishgan. Afsuski, keyingi paytlarda yoshlar bu kabi urchitishimizni biroz unutishdi.

Gazeta «Zarafshon» tahririyatining kompyuter bo'limida sahifalandi.

«Noshir lux» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.

**Korxona manzili:** Samarcand shahri, Spitamen ko'chasi, 270-uy.

Bosishga topshirish vaqt:

soat 18:30 da.

Bosishga topshirildi:

soat 19:00.

**Navbatchi muharrir:** G'.HASANOV.

**Navbatchi:** D.TO'XTAYEV.

**Sahifalovchi:** B.ABDULLAYEV.

ISSN-201667X



Sotuvda  
narxi kelishilgan holda